

**YOSH AVLODGA MILLATLARARO MULOQOTNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
AHAMIYATI**

*p.f.f.d(PhD), dotsent **Ostonov Jasur Shopirjonovich**
Ernazarova Zulxumor Muxammadi qizi
Buxoro Davlat pedagogika instituti magistri,
e-mail: zulxumor4480@gmail.com*

Annotatsiya: Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda, yosh avlodga chet tilini o'rgatishga katta etibor qaratilmoqda hamda millatlararo muloqot masalasi ham so'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda va bu mavzu yuzasidan ko'pchilik ilmiy maqola yozuvchilar O'zbekistonda yoshlarning millatlararo muloqot qilish masalasini yoritib berganlar. Shu jumladan, bu maqola ham millatlararo muloqotning shakllanishining pedagogik- psixologik ahamiyati haqida malumot beradi. Bunda xorijiy tilni o'rganish hamda millatlararo muloqotni rivojlantirish masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Millatlararo muloqot, xalqlararo munosabat, chet tili, pedagogika, psixologiya, davlat tili, Konstitutsiya, ta'lim, o'quvchilar,

Абстрактный: В современном быстро развивающемся обществе большое внимание уделяется обучению молодого поколения иностранному языку, а также проблема межнационального общения в последние годы привлекла внимание исследователей, и многие авторы научных статей на эту тему освещали проблему межнационального общения среди молодежи Узбекистана. В статье также представлена информация о педагогическом и психологическом значении формирования межнационального диалога. Здесь решаются вопросы изучения иностранного языка и развития межнационального диалога.

Ключевые слова: Межэтнический диалог, международные отношения, иностранный язык, педагогика, психология, государственный язык, Конституция, образование, студенты,

Abstract: In our rapidly developing society, great attention is paid to teaching the younger generation a foreign language, and the issue of interethnic dialogue has also attracted the attention of researchers in recent years, and many authors of scientific articles on this topic have covered the issue of interethnic dialogue among young people in Uzbekistan. In particular, this article provides information about the pedagogical and psychological significance of the formation of interethnic dialogue. In this regard, the issues of learning a foreign language and developing interethnic dialogue are revealed.

Keywords: Interethnic dialogue, relations between peoples, foreign language, pedagogy, psychology, state language, Constitution, education, students,

O‘sib kelayotgan yosh avlodni insoniylik ruhida tarbiyalash, O‘zbekiston jamiyatida yashovchi kishilar orasida insoniy munosabatlarni shakllantirish bugungi kunda pedagogika hamda psixologiya fanlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda dunyoviy, umuminsoniy an‘analarni hisobga olish, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlariga tayanish uchun ko‘pmillatli O‘zbekiston jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish lozim. O‘zbek xalqi hayotini demokratlashtirish, ta’lim tizimini insonparvarlashtirish va milliy bosimlarning kuchayishi sharoitida o‘quvchilarga millatlararo insoniy munosabatlarni singdirish o‘ziga xos dolzarblik kasb etmoqda. Ta’lim muassasasidagi ko‘pmillatli o‘quvchilar jamoasi orasida insoniy munosabatlar va aloqalarni shakllantirish jamiyat hayotini sog‘lomlashtirishning muhim shartidir. O‘zbekistonda yashovchi xalqlarda o‘z-o‘zini anglashning kuchayishi o‘quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda. Bu O‘zbekistonda jamiyat hayotini demokratlashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur muammoni yechishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari alohida o‘ringa ega. Aynan umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini rivojlantirish sohasida erishilgan yutuqlar negizida yosh avlodning axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularning obyektiv borliq bilan munosabatini kengaytirish orqali mikrosotsiumga tayyorlashga harakat qilinmoqda. Chunki jamiyatning yuksak madaniyatli, bilimli va insonparvar a‘zolarini tarbiyalash uning hayotini sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday kishilargina ko‘pmillatli jamiyatda muvaffaqiyatli yashab, faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Nafaqat o‘zining milliy madaniyatini biluvchi, uni hurmat qiluvchi, balki boshqa xalqlar madaniyatini ham qadrlaydigan, ularni o‘z milliy madaniy boyliklari bilan uyg‘unlashtira oladigan, baynalmilallik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yoshlarni shakllantirish jamiyat ehtiyojiga aylanmoqda. Muloqot – o‘zaro bir-birini tushunish, fikr almashinish, aloqa o‘rnatish, axborot almashinish, hamjihatlikda harakat qilish demakdir. Millatlararo muloqot esa, turli millat vakillarining o‘zaro hamjihatlikda harakat qilishi, munosabatga kirishishi, fikr va axborot almashinishidan iborat jarayondir. Shuning uchun ham, o‘quvchilarni yoshligidan boshlab millatlararo muloqotga tayyorlash lozim. Chunki O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat bo‘lib, unda 130 dan ortiq millat vakillari yashaydilar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida turli millat vakillarining o‘zaro hamjihatlikda yashab faoliyat ko‘rsatishi qonuniy kafolatlangan. Chunonchi, Konstitutsiyaning 4-moddasida «O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi»[1] , deb

ta’kidlangan. Darhaqiqat, o’quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash ham siyosiy, ham ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo’lgan dolzarb masala hisoblanadi. Tarixiy tajribalardan shu narsa ma’lumki, turli millat vakillari bir-birlari bilan o’zaro muloqot o’rnatganlar, buning uchun esa bir-birlarining madaniyatlari, qadriyatlarini o’rganganlar, qadriyatlarga asoslangan do’stona munosabat yo’lga qo’yilganlar.

Millatlararo muloqot masalasi so’nggi yillarda tadqiqotchilar e’tiborini o’ziga jalb qilmoqda. Muloqotning asosiy maqsadi – subyektlarning maqsadga muvofiq tarzda bilvosita hamkorligini amalga oshirishdan iborat. Ta’lim jarayonida o’quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash kommunikatsiya mazmuni va kommunikatsiya modelini aniqlashni taqozo qilmoqda. Muloqot jarayoni subyektlari turli millat vakillari bo’lgan o’quvchilar, ijtimoiy guruhlar, umuman jamiyat a’zolari bo’lishi mumkin.

Zamonaviy pedagogika fanida o’quvchilarni millatlar va madaniyatlararo muloqotga tayyorlashning bir necha yo’nalishlari namoyon bo’lmoqda. Jumladan:

- falsafiy nuqtai nazardan qadriyatlarning tabiiyligi tadqiq etilgan;
- ijtimoiy yo’nalishda esa millatlar va madaniyatlararo muloqot ijtimoiy muhitning zaruriy omili sifatida tadqiq etilib, bu o’z navbatida, yosh avlodni ijtimoiylashtirishga ta’sir ko’rsatadi;
- psixologik nuqtai nazardan etnopsixologik, millatlar va madaniyatlararo muloqot insonni o’rab turgan obyektiv borliqni qisman namoyon bo’lishi sifatida talqin etilmoqda;
- madaniyatshunoslik doirasida bu masala madaniyatlarni o’zlashtirish jarayoni va millatlararo munosabatlar madaniyati sifatida inson faoliyatining o’ziga xos jihati bo’lganligi uchun ham alohida xususiyatlarga ega;
- pedagogik nuqtai nazardan o’quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash jarayonining mazmuni, vositalari, usullari, metodlari va texnologiyalari o’rganilishi lozim.

Shunga ko’ra, biz o’z tadqiqotimizda o’quv tarbiya jarayonida o’quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash jarayonining mazmuni, uni amalga oshirish yo’llari, usullari, vositalari, metodlari va texnologiyalarini tadqiq etishga intildik.

O’tgan XX asrning 80-yillarida baynalmilallik, baynalmilal ta’lim-tarbiya tushunchasi ilmiy yondashuvlarning markazida turdi. Pedagogika fanida mazkur muammoga bag’ishlangan tadqiqotlar doirasi kengaydi. Biroq mazkur yondashuvlar va tadqiqotlar bir yoqlama xarakterga ega bo’lib, kommunistik mafkura siyosati bilan yo’g’rilgan edi. O’tgan XX asrning 90-yillariga kelib, mamlakatimizda mafkuraviy paradigma va ijtimoiy-siyosiy tuzumning o’zgarishi bilan bog’liq tarzda pedagogika fanida ham millatlar va madaniyatlararo munosabatlar sohasida yangicha qarashlar tarkib topa boshladi. Millatlar va madaniyatlararo munosabat o’zida falsafiy, xalqshunoslik, pedagogik-psixologik g’oyalarni mujassamlashtirib, ta’lim jarayonini

insonparvarlashtirish bilan bog‘liq tarzda uning ko‘pgina yo‘nalishlarini keng tadqiq etish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida milliy madaniyatlararo muloqot va do‘stona munosabatlar o‘rnatish masalasi davlat siyosatida ustuvor o‘rin egallay boshladi. Bu ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, nutq va ma’ruzalarida o‘zining yaqqol ifodasini topdi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asaridagi «Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug‘imiz bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barkarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz tafakkurida bu qadriyatning beqiyos ahamiyatini anglab yetish tuyg‘usi tobora yuksalib bormoqda», [2] deya ta’kidlagan so‘zlari ayni haqiqatdir.

Shu bilan bir qatorda, mazkur yo‘nalishda keng ko‘lamli tadqiqotlar ham amalga oshirildi. Jumladan, Q.Xonazarov, E.Yusupov, Q.Nazarov, Yu.Axrorov, V.X.Abelyan, L.Yu.Bondarenko, R.R.Valitova, G.N.Volkov, Z.T. Gasanov, S.D. Guriyeva, I.A.Dadov, A.F.Dashdamarov, G.D.Dmitriyev, D.V.Zinovyev, R.I.Kadiyeva, V.P.Komarov, I.S.Kon, Z.F.Mubinova, M.G.Taychinov, V.A.Tish-kov, L.S.Yadrixinskayalarning ishlari bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston ko‘pmillatli davlat bo‘lishi bilan bir qatorda, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston hamda Afg‘oniston bilan chegaradosh. Bu davlatlarning har birida turli din va madaniyatga mansub kishilar hayot kechiradilar. Milliy davlat markaziga yaqinlik mazkur hududda yashovchi millatlarning etnik xarakteriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Qozoqlar, afg‘onlar, turkmanlar va qirg‘izlar O‘zbekiston aholisining muayyan qismini tashkil etadi. Bu o‘z navbatida, milliy siyosat yuritish va ta’lim tizimini tashkil etishda alohida yondashuvni talab qiladi. Etnik guruhlarini butun hudud bo‘ylab bo‘lib-bo‘lib joylashtirish milliy ta’sir ko‘rsatish hududlari, degan tushunchaning ongimizda hosil bo‘lishiga asos bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda uzoq yillar davomida turli millat vakillari bilan tinch-totuv yashash an‘anasi mavjud. O‘quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash jarayonida muammoning psixologik yo‘nalishlariga ham alohida e’tibor qaratish talab qilinadi. Chunki milliy munosabatlarning psixologik jihatlarini anglash millatning o‘z-o‘zini anglash darajasini tushunishga ko‘maklashadi. Shunga ko‘ra, milliy o‘zlikni anglash madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini egallashda asosiy o‘rin tutadi. Etnik hodisalar chuqurligi va hissiyotlarning kechinmalarga boyligi mazkur subyektiv omilning rivojlanishida alohida o‘rin egallab, shaxsning etnik munosabatlar tizimi va muayyan vaziyatlarda guruh doirasida o‘z-o‘zini idrok etishi alohida ahamiyatga ega. Bu sohada Bahouddin Naqshbandiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning qarashlari, zamonaviy pedagogikada

G.Akramova, I.Safarbuyayeva, R.Medetova, B.S.Gershunskiylarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu tabiiy hol, albatta.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov millatlararo munosabat, millatlar hamda dinlararo bag‘rikenglik masalalariga davlat miqyosida alohida e‘tibor qaratdi. Jumladan, u o‘zining «Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch» asarida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “... milliy g‘oyamizga qaysi tomondan ta’rif va baho bermaylik, xalqimizni birlashtiradigan bu oliy maqsadlar asrlar davomida uning yuragidan, qalbidan joy olib kelgan orzu-armon va ezgu intilishlar bilan chambarchas bog‘liq ekaniga ishonch hosil qilamiz. Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillarning ma‘nomohiyatini bugungi kunda mamla-katimizda olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy, ta’lim-tarbiya ishlarining markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat”[3].

Mavjud nazariy ma‘lumotlarga tayangan holda milliy o‘zlikni anglashni muayyan millatga mansublikni his etish darajasi sifatida baholash mumkin. Milliy o‘zlikni anglashda shaxsning muayyan millatga mansubligini his etish imkoniyati darajasi o‘z ifodasini topadi.

Bir qator mutaxassislar R.G.Abdulatipov, R.G. Safarova, Q.Xonazarov, I.Andramonova, Z.V.Sikevich, G.V.Starovoytova, T.G.Stefanenko, A.T.Uverov, G.T.Shpetplarning ta’biricha, milliy o‘zlikni anglash umumiy ijtimoiy va madaniy omillar sirasiga kiradi. U o‘z navbatida, milliy qadriyatlar tizimida ijtimoiy muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Milliy o‘zlikni anglash ko‘nikmasining mustahkamlanishi, ayniqsa, muayyan xalqning milliy davlat tuzishga bo‘lgan intilishlarida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda xalq milliy o‘zlikni anglash bosqichidan milliylik bosqichiga o‘tadi.

Xalqlararo munosabatlarda etnik munosabatlarning o‘ziga xos xarakterli jihati tarixiy an‘analar bilan bog‘langan bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy holat hayotning iqtisodiy, madaniy sharoitlari bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Bunday holat millatlararo muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va muayyan vaziyatlar bilan bog‘liq tarzda vujudga keladi. Xalqlararo munosabatlarda milliy manfaatlar muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayonda jamiyat a’zolarining har jihatdan milliy taraqqiyotga bo‘lgan ehtiyojlarini anglash muhimdir. Shaxsiy darajada millatlararo munosabatlarning xarakteri kishilarning individual-psixologik sifatleri bilan bog‘liq bo‘ladi. Millatlararo munosabatlar turli sohalaridagi aloqalar natijasida vujudga keladi. Bu milliy qoliplar, muayyan millat vakillarining kayfiyati va xulq-atvori, etnik umumiylikka ega bo‘lgan kishilarning xatti-harakatlarida ifodalanadi. Xalqlar orasidagi qoidalar va yo‘nalishlar

shaxsni ijtimoiylashtirish jarayonida shakllanadi. Bu jarayon oila, o‘quv muassasalari, mahalla, mehnat jamoalari, qo‘shnilar orasidagi do‘stona munosabatlar zamirida vujudga keladi. Millatlararo munosabatlar o‘zida milliy, kognitiv elementlar, hissiy-baholovchi va boshqaruvchilik ko‘nikmalarini mujassamlashtiradi[4].

Bizning tadqiqotimizda o‘quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashda millatlararo munosabatlar turli millat vakillari orasidagi subyektiv, ijtimoiy-psixologik munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Millatlararo munosabatlardagi etniklik tushunchasini taxlil qilish natijasida har bir shaxs darajasida millatlararo munosabatlar sohasida ijobiy fikrlar mavjud. Shakshubhasiz bu o‘rinda millatlararo madaniy munosabatlar haqida fikr yuritish mumkin. Chunki madaniyat muayyan kishilar orasida ularni bir-biriga bog‘lovchi vositadir. O‘quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning pedagogik yo‘nalishlarini o‘rganar ekanmiz, shaxsning ma‘naviy hayoti muammosini tahlil qilishga ham e‘tibor qaratamiz. Bunda millatning ma‘naviy-axloqiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Xulosa o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, madaniyatlararo va millatlararo mulokot tushunchasining mohiyatini to‘g‘ri anglash uchun biz tarkibiy tahlil metodidan foydalangan holda milliylik, munosabatlar, madaniyat, millatlararo munosabatlar tushunchalarini muayyan izchillikda taxlil qilishga intildik.

Bugungi kunda pedagogika fanida inson omiliga e‘tibor qaratish haqidagi ilmiy yondashuvlar muhim o‘rin egallamoqda. Shu tariqa, milliy mansublik va milliylikning ijtimoiy-madaniy tushunchasi bilan aloqadorligi o‘quvchilarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash kontekstida chuqur tahlil etishni talab qilmoqda. Shaxslararo munosabatlarga bag‘ishlangan ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, millatlararo muloqotning o‘zida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan munosabatlarning barcha turlari namoyon bo‘ladi. Pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik, xalqshunoslik, jamiyatshunoslikka oid manbalarning tahlili mazkur hodisaning murakkabligi, ko‘p qirraliligi, o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini ko‘rsatmoqda. Umumiy tarzda millatlararo muloqot tushunchasi ostida insoniy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan shaxslararo muloqot turlari tushuniladi. Turli millat vakillari orasidagi shaxsiy kechinmalar va munosabatlar etnik umumiylikni namoyon qiladi. Bu jarayonda shaxsiy jihatiga ko‘ra hissiy hamda baholovchi munosabatlar ishtirok etadi.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2008. – B. 4
2. Karimov I.L. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent: «O‘zbekiston», 1999, 9-bet
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naaviyat yengilmas kuch. Toshkent: «Ma‘naviyat», 2008. B. 75 80
4. X.I. Yusupova. O‘quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning nazariy asoslari.-T.:”Fan va texnologiya”, 2013, 152 bet.